
“Qorbobolar karvoni” loyihasi Qo’shtepa tumanida...

Qo’shtepa tumanida start olgan “Qorbobolar karvoni” loyihasi doirasida 100 nafardan ortiq Qorbobo va Qorqizlar yurtdoshlarimizga Yangi yil shukuhi va bayram kayfiyatini ulashdi.

“Qorbobolar karvoni” dastlab tuman Madaniyat markazi oldida ehtiyojmand oilalarning farzandlari uchun tashkil etilgan Yangi yil bayram tadbirida ishtirok etishdi.

Bolajonlarga olam-olam shodlik ulashgan Qorbobo va Qorqizlar ancha masofa bosib o’tib, karnay-surnay sadolari ostida avval 39-maktabga yetib bordilar. Undan so’ng ushbu maktabning uyda yakka tartibda ta’lim oluvchi o’quvchisi Kozimjon Egamberdiyevning xonadonida bo’lishib, uning holidan xabar olishdi va sovg’a-salomlar ulashishdi.

Qorbobo va Qorqizlarning navbatdagi manzili esa “Solijonobod” mahallasi bo’ldi. Mahalla ahliga bir olam quvonch ulashgan “Qorbobolar karvoni” 34-maktabning uyda yakka tartibda ta’lim oluvchi o’quvchisi Umidjon A’zamovlarning xonadoniga kirib borishdi. Qorbobo va Qorqizlar musiqiy chiqishlari bilan barchaga yaxshi kayfiyat ulasha oldilar.

2024-12-28 17:33:20